



ENERGIYA SAMARADOR UYLAR UCHUN ME'YORIY-HUQUQIY TALABLAR.

Abdusamatova Lola Xudoynazarovna

Jizzax Politehnika Instituti "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasida assistenti.

Nomozova Sharifa O'ktam qizi

Jizzax Politehnika Instituti talabasi

Anotatsiya. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish masalasi har doim dolzarb masala bo'lib kelgan. Muqobil energiyaga bo'lgan talablar tabora ortib borayotgan bugungi davrda bu masala yanada dolzarblashib bormoqda. Hozirgi kunda energiya tejamkorlikni davlat siyosati ko'tarilganligini aynan shu yo'nalishda keyingi yillar ichida qabul qilingan va qilinayotgan qaror, farmonlar va bir qator qonun osti me'yoriy hujatlarni misol keltirish mumkin. Bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay shart-sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida mamlakatimizda bugungi kunda energiya samarador tejamkor uylar qurish masalasiga qurilish sohasini rivojlantirish eng muhim omillardan biri sifatida e'tibor qaratilib, xususan davlat dasturlari doirasida qishloq va shahar joylarda namunaviy loyihalar asosida bunyod etilyotgan turar joylarni ijtimoiy soha obyektlar binolari hamda aynan shu xususiyatlar bilan boyitilishi asosiy vazifa etib belgilanmoqda.

Kalit so'zlar: Qonunlar, farmonlar, qonun osti hujjatlar, energiya samaradorligi toifasi.

Abstract. The issue of rational use of energy resources has always been a pressing issue. In today's era, when the demand for alternative energy is increasing, this issue is becoming even more relevant. Currently, the state policy on energy efficiency is being strengthened, as evidenced by the decisions, decrees and a number of regulatory documents adopted and implemented in this direction in recent years. In order to comprehensively organize work in this area and introduce favorable conditions and incentive mechanisms for investors, today in our country, attention is paid to the issue of building energy-efficient and energy-saving houses as one of the most important factors in the development of the construction sector, in particular, the main task is to enrich the residential areas being built on the basis of model projects in rural and urban areas with buildings of social objects and precisely these features.

Keywords: Laws, decrees, subordinate legal documents, energy efficiency category.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining «Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirishga doir chora tadbirlar to'g'risida»gi 01.03.2013 yil PQ-4512-sonli farmoni va «Xalqaro quyosh energiyasi institutini tashkil qilish to'g'risida»gi 01.03.2013 yil PQ-1929-sonli qarori. [1,2]

Taxlillarga qaraganda hozirgacha 80 ga yaqin mamlakatlarda muqobil energiya manbalari sohasida milliy qonunchilik yaratilgan. Ayniqsa so'ngi yillarda bu sohada Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Braziliya, Kanada, Xitoy, Daniya, Estoniya, Chexiya, Fransiya,

Germaniya, Irlandiya, J/Korea, Niderlandiya, Portugaliya, Singapur, Shvetsariya, AQSH, Hindiston, Mongoliya va Isroil kabi qator davlatlarda bir qator qonunlar qabul qilingan hamda amaldagi qonunchilikka o'zgartirish va qo'chimchalar kiritilgan. Ellikdan ortiq mamlakatlar qonunchiligida davlat, biznes va nodavlat sektor e'tiborini mazkur sohaga qaratish muqobil energiya manbalarining rivoji uchun davlat tamonidan rag'batlantiruvchi choralarni ko'rish, subsidiyalar siyosatini qo'llashga nisbatan munosabat shakllangan. Muqobil energiya manbalari bo'yicha xalqaro qonunchilik tajribasi haqida gapirganda Yevropa ittifoqida bu boradagi amaliyotga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Zero bu mintaqada mazkur sohada yetarlicha tajriba to'plangan bo'lib bunday manbalarni rivojlantirish mintaqa energetika siyosatini muhim yo'nalishi hisoblanadi. Muqobil energiya manbayi sohasini rivojlantirish qo'llab quvatlash usullari turli bo'lib, bunday energiya manbayi asosida vijudga keladi, elektr energiyasini sotish uchun imtiyozli tariflar dunyoning ko'plab davlatlarida joriy etilgan maxsus yashil sertifikatlardan foydalanish yani qayta tiklanuvchi energiya manbayi orqali hosil qilingan energiyani yuqori narxda oluvchi istemolchilarga sotish choralari Shvetsiya, Belgiya Buyuk Britaniya, Polsha amal qiladi. Mazkur sohadagi munosabatlarni energiyadan oqilona foydalanish to'g'risidagi elektr energiysi to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror qabul qildi. [3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan 2023-yilda «Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish jadallashtirish to'g'risida»gi ishtimoiy va uyjoy komunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarni keng joriy etish, nergiya samaradoligini oshirish orqali respublika hududida energiya tanqisligi qoplanishini taminlash. Turarjoy binolarini ekalogiyalash usullari ya'ni yashil energiyadan foydalanish ularni isitish va sovutish bo'yicha yechimlarni izlash bu ishning ustivor vazifasidir. O'zbekistondagi turarjoy binolarining mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda va uning energiya samaradorligiga an'anaviy yondashuv rejalashtirish konstruktiv va fazoviy yechimlarini ishlab chiqish uchun afzallik beradi. Bu esa o'z navbatdagi iqlim o'zgarishi muommolari uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi kunda O'zbekiston qurilish bozorida mahalliy ishlab chiqarilganlar tamonidan tayyorlangan barcha xildagi energiya samarador materiallar va texnologiyalarini topish mumkin. Prezidentimizning 2019-yil 4-oktyabrdagi «2019-2030-yillar davridagi O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida iqtisodiyotning barcha sohalarida, jumladan energiya tejamkorlik qurilish materiallarini ishlab chiqarich bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. [4,5,6]

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2020-yilda yangi qurilgan binolarning atigi 6 foizini energiya tejamkor tizimlar (masalan izolyatsiyalangan derazalar, led yoritish, passiv sovutish) joriy qilingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2021-yilda 12 foizga yetgan 2022-yilda esa bu ulush 18 foizni tashkil etgan bo'lib, bu yil davomida 22 ta jamoat ob'yektlarida energiyasamaradorlik



qurilish elementlari o'rnatilgan. 2023-yilda mazkur ko'rsatgich 25 foizga ko'tarilib ayniqsa davlat buyurtmachilari asosida qurilgan yangi ob'yektlar yangi maktab va poliklinika binolarida quyosh panellari, issiq izolyatsiyalari fasdiy aqlli yoritish tizimlari qo'llanilgan. 2024-yil 1-choragida esa allaqachon 28 foiz ob'yektlarda energiya tejamkor tizimlar qo'llanilgan bo'lib yil yakuniga qadar bu ko'satgich 35 foizgacha yetish pragnoz qilinmoqda. Aholi o'rtasida 2023-yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra fuqorolarning 74 foizi energiya tejavchi texnologiyalardan foydalanish istagini bildirgan, ammo bu yo'nalishdagi bilim va moliyaviy imkoniyatlarning yetarli emesligini takidlagan. Bu holat davlat va xususiy sektor o'rtasida xamkorlik kuchaytirish aholiga subsidiya imtiyozlarini berish zaruriyatini ko'rsatadi. Shuningdek arxitektura loyihalarida passiv uy tamoyillarini jizzaxning iqlimiga mos holda tadbiiq qilish taklif etilmoqda. Yani binolarning quyoshga nisbatan yonaltirishi tom va fasadlarning maksimal izolyatsiyalangan bo'lishi tabiiy shamollatishga asoslangan loyiha yechimlari ustuvor yo'nalish sifatida ajralib turadi. Jizzax viloyatida olib borilgan amaliy loyihalar ham ilmiy asoslangan yondashuvlaning bir qismidir. Masalan: Jizzax viloyatida qurilgan ayrim hamda kam qavatli turarjoy binolarida quyosh bateriyalari va energiya tejavchi yoritish tizimlari joriy etilgan bo'lib bu tajriba kelajak loyiha ishlari uchun asos bo'la oladi. Shu bilan birga «O'zbekiston Respublikasining energiya samaradorligi va energiyani tejavshga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi»dir. (2022-2030-yillarda) energiya tejavchi qurilish meyyorlari binolarinig ekalogik samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi qonuni-940-sonli (energiya tejamkorligi oqilona foydalanish va samaradorligini ko'tarish to'g'risida) qonuni ushbu qonunning maqsadi energiyani tejavsh undan oqilona foydalanish energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. [5]

O'zbekiston Respublikasining (energiya tejavsh undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida) gi qonuniga muofiq respublika iqtisodiyot tarmoqlarida energiya tejavsh undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishni taminlash hamda energiya istemolchilarini energiya auditlaridan o'tkazish jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida, vazirlar mahkamasining 2024-yil 19-oktyabrdagi (yoqilg'i energetika resurslarini istemolchilarini hamda bino va inshootlarni energiya istemolini energiya auditlarini o'tkazish tartiblarini belgilash to'g'risida) gi 690-sonli qarori.

O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejavsh maqsadida qabul qilingan muhim xujjatlar bo'lib asosiy maqsadi istemolchilarni va binolarni energya auditidan otkazish. Energiya sarfini kamaytirish, shuningdek bu jarayonlarning amaliy mexanizmlarini belgilashdan iborat. Qarorning asosiy maqsad va vazifalari[8,9]

-energiya auditidan o'tkazish: yoqilg'i energetika resurslarini istemolchilari va binolarda energiya sarfini baholash

-energiya samaradotligini oshirish: aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali energiya tejavsh imkoniyatlarini yaratish



-tartibni belgilash: energiya auditini o'tkazish tarkibi talablari va ishtirokchilarning vazifalarini aniqlash qarorlarning ahamiyati

-bu qaror energiya resurslarning oqilona foydalanishiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va ekalogik vaziyatni yaxshilashga yordam beradi

- istemolchilarning o'zlarinig energiya sarfini chuqurroq tushunib uni optimizatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi

Bu qarorga ko'ra qurilish va uyjoy komunal xo'jalik vazirligi bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirishda energiya auditlarini o'tkazish ishlarini tashkil etish muofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha vakolatli organ etib belgilasin. 2024-yil 1-noyabrdan boshlab foydalanish maydoni 200 m2 ortiq bo'lgan bino inshootlarni energiya samaradorligi toifasini aniqlash uchun (A, B, C, D, E, F, G belgilari joriy etildi. Bunda A toifasi energiya samaradorligi eng yuqori G toifasi esa energiya samaradorligi eng kam bo'lgan bino va inshootlarni belgilash uchun qo'llaniladi. [8,9,10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zb.res.prez/I.A.K ning "Xalqaro quyosh eneryiyasi institutinin tashkil qilish tog'risida"gi PQ-1929 sonli qarori, 01.03.2013y

2. O'zb.res.prez/I.A.K ning "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirishga doir chora tadbirlar to'g'sida"gi PQ-4512 sonli farmoni 01.03.2003y.

3. O'zb.res.prez SH.Mirzayevning "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni taminlash chora tadbirlar to'g'risidagi qarori 08.11.2017y.

4. O'zb.res.prez Sh. Vbhzayevning "Energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish strategiyasi (2020-2030-yillar) " qarori PQ-4422-sonli qarori 22.08.2020y.

5. 2019-2030-yillar davrida O'zbek.res. "yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

6. O'z.res.Prez.Sh.M.ning "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" qarori 2023 y.

8. Sh.N.Q. 2.01.01-22 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy gealogik malumotlar" Shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. -T.-2023y.

9. Isam Abdo I.A, Hadi Musa I.M.S ,Isam Xolil "Issiq va quruq iqlim sharoitida turar joy binolarini arxitekturaviy loyihalashda passiv energiya istemoli strategiyasi. Rossiya xalqlar do'stligi unversiteti.-M.-2024y.

10. Gellot John I. David Wright's residence in Santa-po (John Gellot//RSHRAE. Jurnal -1978-vol.20-№1. P.18-21.